<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
Kasbiy maslahat – maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning samarali vositasi sifatida	980
<i>Raxmatova Sevara Abdulloevna, Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich</i>	
Umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari	986
<i>Saydullayeva Shahlo Sobir qizi</i>	

Pedagogik modellashtirishning o'ziga xos jihatlari va nazariy asoslari.....	990
<i>Sharipov A'zamjon Axmadjonovich</i>	
Talabalarda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari	994
<i>Valixanov Ilyos Ixamovich</i>	
Ta'lim texnologiyalarini mashg'ulotlarda qo'llashning o'ziga xos jihatlari.....	998
<i>Valiyev Sarvar Abdusalimovich</i>	
Ishonch – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida	1002
<i>Xo'jamova Kamola To'lqin qizi</i>	
Jahon va O'zbekiston tajribasida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish yondashuvlari	1006
<i>Rajapov Sulaymon Nuraddin o'g'li</i>	
Iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida ingliz tilining o'rni va ahamiyati.....	1010
<i>Samandarova Nargiza Muxammadovna</i>	
Praksiologik yondashuv – pedagogik ta'limning metodologik asosi sifatida.....	1015
<i>Rashidova Zulayho Olimjon qizi</i>	
Talabalarga ingliz tilini o'rgatishda "pen pals" loyihasidan foydalanish modeli	1020
<i>Tuymanova Inobat Fozilovna</i>	
Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarini tashkil etish metodlari.....	1024
<i>Ahmadaliyeva Hilolaxon A'zamjon qizi</i>	
O'zbekistonda ingliz tilini o'rganayotgan yosh o'quvchilarda gapirishga bo'lgan xavotir darajasi: rol o'ynash intervensiyasi	1029
<i>Mannapova Maftunaxon</i>	
Ingliz tili darslarida o'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini story-based learning usulidan foydalanib shakllantirish metodikasi.....	1033
<i>Xalilova Sevara Kamoliddin qizi</i>	
Integrating the Case Study Method Into Teaching Medical English: an Innovative Pedagogical Research	1037
<i>Xoshimova Azizaxon Saxobiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil qilishning ahamiyati va samaradorligi	1041
<i>Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi</i>	
Критерии эффективности системного подхода в образовании и воспитании детей, находящихся на длительном лечении	1044
<i>Алимова Нигора Исраиловна</i>	
Развитие учебной мотивации через дифференцированный подход в преподавании физики.....	1049
<i>А. Б. Камалов, М. П. Серимбетова</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida media savodxonlikni shakllantirish metodikasi	1053
<i>Astanaqulova Nilufar Dilmurod qizi</i>	
Talabalarda web platformadan foydalanish asosida kompyuterli modellashtirish ko'nikmasini rivojlantirish	1058
<i>Xazratqulov Abduvohid Abdurauf o'g'li</i>	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish	1062
<i>Gulyamova Aziza Anvarovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holati	1066
<i>Solijonov Jasurbek Valeriy o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlantirishning shart-sharoitlari	1070
<i>Umarova Mehriniso Ibragim qizi</i>	
Etnomadaniy kompetentlik tushunchasining genezisi va zamonaviy talqinlari.....	1074
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
O'smir qizlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishda ota-onalarning roli	1078
<i>Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi</i>	
Kreativ fikrlash kompetensiyalarining mazmuni va ahamiyati	1081
<i>Yuldashev Shukrullo</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqining talaffuz tomonini shakllantirishda differensial yondashuv	1086
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich, Toshpulatova Muxlisa Toshpulot qizi</i>	



Sensor integratsiya asosida aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashda nutqga ta'sir etishning korreksion ahamiyati.....	1089
Akramova Xafiza Samadovna, Raximova Zarina Shuxrat qizi	
Talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida qadriyatlarning o'rni va ahamiyati.....	1093
Boboxujayev Joxonmirzo Umar o'g'li	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	1096
Pardayev Asror Ikromvich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasi.....	1099
Parmonova Laylo Ilxomovna	
Формирование эмоционального интеллекта у младших школьников средствами сказкотерапии	1102
Мухаммадиева Марифат Мурод қизи	
Fizika ta'limida STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda kasbiy va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish.....	1105
Mamatxunov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi	



FIZIKA TA'LIMIDA STEAM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA KASBIY VA INNOVATSION KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Mamatxunov Yorkin Abduraimjanovich
Andijon davlat universiteti, PhD, dotsent

Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi
Andijon davlat universiteti, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika ta'limida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) texnologiyalaridan foydalanishning o'quvchilarda kasbiy va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida loyiha asosida, tadqiqotga yo'naltirilgan hamda fanlararo integrativ yondashuvlar negizida fizika darslarini tashkil etishning metodik asoslari ishlab chiqildi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, STEAM texnologiyalariga asoslangan ta'lim o'quvchilarda texnik tafakkur, ijodkorlik, ilmiy izlanish, kasbiy yo'nalish va muammolarni hal etish kompetensiyalarini samarali rivojlantiradi. Natijada, fizika ta'limi o'quvchilarning amaliy faoliyatga, ilmiy-tadqiqot ishlariga va innovatsion fikrlashga tayyorligini oshiruvchi zamonaviy tizim sifatida shakllanadi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, fizika, innovatsion kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, texnik tafakkur, ilmiy izlanish, integratsiya.

Abstract: This article analyzes the role of applying STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) technologies in physics education for developing students' professional and innovative competencies. The study elaborated methodological foundations for organizing physics lessons based on project-based, research-oriented, and integrative approaches. Experimental findings demonstrated that STEAM-based instruction fosters students' technical thinking, creativity, scientific inquiry, professional orientation, and problem-solving skills. As a result, physics education evolves into a modern innovative system that enhances learners' readiness for practical activities, research engagement, and innovative thinking.

Key words: STEAM education, physics, innovative competence, professional readiness, technical thinking, scientific inquiry, integration.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль применения технологий STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) в обучении физике для формирования у учащихся профессиональных и инновационных компетенций. В ходе исследования разработаны методические основы организации уроков физики на основе проектного, исследовательского и интегративного подходов. Экспериментальные результаты показали, что обучение с применением технологий STEAM способствует развитию у учащихся технического мышления, творческих способностей, исследовательских навыков, профессиональной ориентации и умений решать проблемные ситуации. В итоге преподавание физики превращается в современную инновационную систему, направленную на подготовку учащихся к практической, исследовательской и технологической деятельности.

Ключевые слова: STEAM-обучение, физика, инновационные компетенции, профессиональная подготовка, техническое мышление, исследование, интеграция.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot hamda innovatsion fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat bosh-

qaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida¹gi PF–76-sonli Farmonida ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, fan, ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, fizika ta'limida STEAM texnologiyalarini qo'llash – nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda kasbiy, texnik, tadqiqotga yo'naltirilgan va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Amerikalik tadqiqotchi Bybee ta'kidlaganidek, "STEAM yondashuvi fanlarni hayotiy va ilmiy kontekstga bog'laydi, bu esa o'quvchilarga o'z bilimlarini real muammolarga tadqiqot orqali qo'llash imkonini beradi." Shuningdek, John Dewey o'zining "Experience and Education" asarida ta'lim jarayonining markazida faol tajriba va izlanish turishi lozimligini ta'kidlagan. Uning "learning by doing" – "amal orqali o'rganish" tamoyili STEAM modeli mohiyatiga to'liq mos keladi, chunki unda o'quvchi nazariy bilimni passiv qabul qilmaydi, balki uni tajriba, kuzatuv va tadqiqot jarayonida faol subyekt sifatida o'zlashtiradi.

David Kolb tomonidan ishlab chiqilgan "tajribaviy o'qitish nazariyasi"da ta'lim jarayoni to'rtta bosqichdan iborat: konkret tajriba, refleksiya, abstrakt tushunchalash va faol tajriba. STEAM texnologiyalari aynan shu tsiklni ta'minlaydi – o'quvchi fizik tajribani bajaradi, o'lchov natijalarini tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va bu bilimni yangi muammolarni hal etishda qo'llaydi. Shu orqali o'quvchi nafaqat o'rganadi, balki o'zi tadqiq etuvchi, yangi g'oyalarni ishlab chiquvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Azizova M. M. fikricha, "Fizika ta'limida fanlararo integratsiyani kuchaytirish o'quvchilarda kompleks fikrlash, muammoli holatlarni tahlil qilish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish kompetensiyalarini rivojlantiradi." Shuningdek, Bozorov Z. R. o'z ilmiy izlanishlarida STEAM texnologiyalarini loyihaviy faoliyat bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarda muhandislik madaniyati, texnik tafakkur va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishini asoslagan. Mamatxunov Y. A. esa fizika ta'limida integrativ, reflektiv va tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuvlarni uyg'un qo'llash orqali o'quvchilarda "nazariy bilimni amaliy tajriba va ilmiy tadqiqot bilan bog'lashga qaratilgan tafakkur tizimi" shakllanishini asoslab bergan. Unga ko'ra, o'qitish jarayonida texnologiya, muhandislik, tadqiqot va san'at elementlarini uyg'unlashtirish fizika fanining o'quvchilar uchun amaliy qadriyat sifatida yetkazilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shunday qilib, STEAM yondashuvi nafaqat tabiiy fanlarni o'rgatish, balki ularni texnologiya, muhandislik, tadqiqot, san'at va matematika bilan uzviy bog'lash orqali o'quvchilarning amaliy, reflektiv, ijodiy va ilmiy-tadqiqot tafakkurini rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratadi. Bu esa fizika ta'limini faqat nazariy bilimlarni yetkazuvchi jarayon emas, balki real hayotdagi muammolarni ilmiy tahlil asosida hal etishga yo'naltirilgan faol o'quv jarayoniga aylantiradi. Natijada o'quvchi "bilim oluvchi" emas, balki "tadqiqotchi va yangilik yaratuvchi" subyektga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda jahon miqyosida STEAM yondashuvining ta'lim jarayoniga integratsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar faollashgan. Bybee o'z tadqiqotlarida ushbu konsepsiyaning o'quvchilarda texnik tafakkur va ilmiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni asoslagan. Deweyning "tajriba orqali o'rganish" tamoyili hamda Kolbning "tajribaviy o'qitish modeli" nazariyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol subyekt sifatida shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi esa STEAM darslarida o'quvchining mustaqil izlanishi va o'qituvchidan yo'l-yo'riq olish jarayonlarini ilmiy jihatdan izohlaydi. Shu bilan birga, Honey va Hilton kompyuter o'yinlari va simulyatsiyalaridan foydalanish orqali tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda tadqiqotga yo'naltirilgan tafakkur shakllanishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Azizova fizika ta'limida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, Bozorov reflektiv o'qitish metodikasining samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlagan. Mamatxunov fizika ta'limida muammoli o'qitish va reflektiv yondashuvni uyg'unlashtirish zarurligini asoslab bergan. Abdurahmonova umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni STEAM asosida o'qitish metodikasini taklif etgan, Raxmatova esa fanlararo integratsiya orqali innovatsion fikrlashni rivojlantirish usullarini ochib bergan. Shodiev va Yuldasheva tadqiqotlarida esa STEM va loyihaviy ta'lim metodlarining samaradorligi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar fizika ta'limida STEAM texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarda texnik tafakkur, kasbiy kompetensiya va ijodiy faoliyatni shakllantirishning muhim vositasi ekanini ko'rsatadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–76-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-6472528>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi jarayonida asosan ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Dastlab, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar hamda maqolalar kontent-analiz qilindi. O'quvchilarning fizika faniga oid bilimlari va innovatsion kompetensiyalarini aniqlash uchun so'rovnoma va kuzatuv usullari qo'llanildi. Shuningdek, eksperimental dars mashg'ulotlari o'tkazilib, ularning natijalari statistik tahlil orqali baholandi. Olingan raqamli ko'rsatkichlar taqqoslash va grafik usullar yordamida qayta ishlanib, asosiy xulosalar chiqarildi. Natijalar ishonchiligi uchun ma'lumotlar matematik-statistik usullar bilan tekshirildi hamda ilmiy izchillik tamoyiliga qat'iy amal qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik natijalar tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning texnik tafakkur, ilmiy izlanish, ijodiy muammolarni yechish, kasbiy motivatsiya va jamoaviy hamkorlik kompetensiyalarida sezilarli o'sishga olib keldi.

:

Kompetensiya turi	Boshlang'ich daraja (%)	Yakuniy daraja (%)	O'sish (%)
Texnik tafakkur	48	79	+31
Ijodiy muammolarni yechish	42	75	+33
Kasbiy yo'nalish motivatsiyasi	54	83	+29
Jamoaviy loyihada ishtirok	46	81	+35

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning texnik tafakkur, ilmiy izlanish, ijodiy muammolarni yechish, kasbiy motivatsiya va jamoaviy hamkorlik kompetensiyalarida sezilarli o'sishga olib keldi. Dastlabki (pre-test) va yakuniy (post-test) diagnostika natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha kompetensiya turlarida o'sish 29–35 foiz oralig'ida qayd etilgan. Bu esa o'quvchilarning STEAM asosidagi o'qitish jarayonida faol ishtiroki, amaliy fikrlash, tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyat, loyihaviy tahlil va reflektiv yondashuv orqali o'z o'rganish faoliyatini mustaqil boshqara olish darajasi sezilarli ravishda oshganini isbotlaydi.

Fizika fanining tabiati nazariy qonunlarni tajriba va tadqiqot orqali isbotlash hamda ularni real muammolarga tatbiq etishga asoslangan. Shu bois, tadqiqot davomida o'quvchilarga fizik qonunlarni muhandislik va tadqiqot g'oyalari bilan uyg'unlashtirish imkoniyati yaratildi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar bir qator ilmiy-tadqiqot loyihalarini ishlab chiqdilar. "Fizik qonunlar asosida dron modeli" loyihasida Nyutonning harakat qonunlari va aerodinamik kuchlarning o'zaro ta'siri modellashirildi, "Quyosh batareyali yoritish tizimi"da elektromagnit to'lqinlarning energiyasi fotoelementlar orqali elektr energiyasiga aylantirildi, "Aqlli suv nasosi"da esa gidrodinamika va elektromagnit induksiya qonunlariga asoslangan, suv bosimini avtomatik boshqaruvchi energiya tejamonkor tizim yaratildi. Ushbu loyihalar o'quvchilarda fizik nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, muhandislik tafakkurini hamda tadqiqotga yo'naltirilgan ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirdi. Har bir loyiha o'quvchilarning fizik hodisalarni tahlil qilish, natijalarni baholash va ularni texnik yechimlarga tatbiq etish ko'nikmalarini mustahkamladi.

Pedagogik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM asosidagi mashg'ulotlar o'quvchilarni faol subyekt sifatida o'qitish imkonini berdi. O'qituvchi endilikda axborot manbai emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, mentor va ilmiy faoliyatni boshqaruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu metodika Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasini" nazariyasiga to'liq mos keladi – o'quvchi mustaqil yechim topishga intiladi, biroq zarur hollarda o'qituvchidan metodik ko'mak oladi. O'quv jarayonida Deweyning "tajriba orqali o'rganish" tamoyili va Kolbning "tajribaviy o'qitish modeli" asosida o'quvchilarda muammoli holatlarda ilmiy gipotezalar ilgari surish, eksperimental tadqiqot natijalarini o'lchash va baholash, reflektiv mulohaza orqali o'z faoliyatini tahlil qilib takomillashtirish kabi fazilatlar shakllandi.

Shu bilan birga, Azizova M. M. va Mamatxunov Y. A. tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, fizika ta'limida fanlararo integratsiya o'quvchilarda ijodkorlik, muhandislik madaniyati va ilmiy-tadqiqot tafakkurini rivojlantiradi. Ushbu tadqiqot natijalari ham bu fikrni tasdiqladi – o'quvchilar fizik qonunlarni o'rganish bilan birga, ularni real biologik va texnologik tizimlarda tadqiq etish salohiyatiga ega bo'ldilar.

O'tkazilgan diagnostik baholash natijalari o'quvchilarning reflektiv tafakkur darajasi, tadqiqotga yo'naltirilgan fikrlash va amaliy muammolarni yechish kompetensiyalarida sezilarli o'sishni ko'rsatdi. Texnik tafakkur ko'rsatkichi 48 foizdan 79 foizgacha, ijodiy yechim ko'nikmalari 42 foizdan 75 foizgacha, jamoaviy ishlash malakasi esa 46 foizdan 81 foizgacha oshgan. Chi-kvadrat (χ^2) statistik tahlil natijalariga ko'ra, bu o'zgarishlar $p < 0.05$ darajasida statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi. Bu esa STEAM metodikasining o'quvchilarda



tadqiqotga yo'naltirilgan fikrlash, mustaqil o'rganish motivatsiyasi, analitik tafakkur va reflektiv o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini kuchaytirganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatdiki, fizika ta'limida STEAM texnologiyalarini joriy etish o'quvchilarda nazariya, tadqiqot va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni shakllantiradi, innovatsion tafakkur, kasbiy motivatsiya va ilmiy izlanish kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda fanlararo integratsiyani ta'minlab, fizika fanining hayotiy, texnologik va tadqiqotiy ahamiyatini oshiradi. Shunday qilib, STEAM texnologiyalariga asoslangan o'qitish modeli fizika fanini o'qitishda ijodiy, tadqiqotga yo'naltirilgan va reflektiv tahlilga asoslangan yangi metodik platforma sifatida o'zini to'liq oqladi. Bu model o'quvchilarning ilmiy tafakkurini, kasbiy kompetensiyalarini va innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lim tizimi sifatida e'tirof etiladi.

№	Yondashuv turi	Ilmiy-pedagogik mazmuni	Fizik fan asosidagi amaliy ifoda	O'quvchi kompetensiyasiga ta'siri
1	Empirik natijalar tahlili	STEAM yondashuvi o'quvchilarda faol o'rganish va reflektiv tafakkur shakllanishiga olib keldi. Diagnostika natijalarida 29–35% o'sish kuzatildi.	O'quvchilar elektromagnit induksiya, energiya saqlanishi va optik hodisalarni tajribalar orqali o'rgandilar.	Texnik tafakkur (+31%), ijodiy fikrlash (+33%), kasbiy motivatsiya (+29%), jamoaviy hamkorlik (+35%).
2	Fizik fan nuqtai nazaridan yondashuv	Fizik qonunlarni muhandislik g'oyalari bilan uyg'unlashtirish orqali nazariy va amaliy bilimlar o'zaro bog'landi.	“Dron modeli” (Nyuton qonunlari), “Quyosh batareyasi tizimi” (fotoelektr effekt), “Aqlli suv nasosi” (gidrodinamika) loyihalari bajarildi.	Fizik jarayonlarni real hayotda qo'llay olish, muhandislik tafakkuri, muammoli yechim topish qobiliyati rivojlandi.
3	Ilmiy-pedagogik tahlil	O'quv jarayonida Dewey (1938) ning “learning by doing” va Kolb (1984)ning “tajribaviy o'rganish” nazariyalari asosida faol o'quvchi modeli yaratildi.	Ekspirimentlar, kuzatuvlar va refleksiya bosqichlari orqali tajribaviy o'rganish sikli shakllantirildi.	Reflektiv fikrlash, metakognitiv tahlil, mustaqil qaror qabul qilish, amaliy tahlil ko'nikmalari kuchaydi.
4	Diagnostik natijalar tahlili	“Pre–post” test natijalari o'quvchilarning o'sishini statistik jihatdan isbotladi ($p < 0.05$).	χ^2 mezon asosida natijalar tahlil qilinib, texnik tafakkur va ijodiy yechim topish darajasi oshgani aniqlandi.	Analitik fikrlash, ilmiy tahlil va o'z o'rganishini baholash kompetensiyalari rivojlantirildi.
5	Umumiy xulosa	STEAM integratsiyasi o'quvchilarda nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamladi hamda innovatsion tafakkurni rivojlantirdi.	Fizik qonunlar asosida ijodiy, amaliy va reflektiv tahlilga yo'naltirilgan yangi metodik model yaratildi.	Innovatsion tafakkur, kasbiy motivatsiya, ijodiy dizayn, muhandislik kompetensiyasi va jamoaviy hamkorlik shakllandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fizika ta'limida STEAM texnologiyalarini integratsiyalash nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshiradi, balki ularning ilmiy-tadqiqot madaniyati, kasbiy motivatsiyasi, reflektiv tafakkuri va innovatsion dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani chuqurlashtiradi. Fizika fanining o'qitilishida ilm-fan, texnologiya, muhandislik, tadqiqot, san'at va matematika elementlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarga real hayotdagi hodisalarni ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Masalan, elektromagnit induksiya mavzusida o'quvchilar nafaqat Faradey qonunini nazariy jihatdan o'rganadilar, balki bu qonun asosida generator yoki elektr induktor modeli yaratadilar. Ushbu jarayon Dewey ta'kidlagan “learning by doing” – “amal orqali o'rganish” tamoyiliga to'la mos keladi, chunki bunda o'quvchi o'rganish jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida ishtirok etadi va bilimni tajriba orqali ongli ravishda o'zlashtiradi.

Ikkinchidan, STEAM yondashuvi Kolb (1984)ning “tajribaviy o'rganish nazariyasi”ni amalda qo'llashga imkon yaratadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir o'quvchi bilimni to'rtta bosqich orqali o'zlashtiradi: konkret tajriba, refleksiya, abstrakt tushunchalash va faol eksperiment. Tadqiqot jarayonida o'quvchilar aynan shu tsikl asosida o'qishdi – fizik tajribani bajarish (tajriba), natijalarni tahlil qilish (refleksiya), qonunni tushuntirish (abstraktlashtirish) va yangi muammoga tatbiq etish (faol eksperiment). Bu yondashuv ilmiy-tadqiqot faoliyatining tsiklik tabiatini ta'lim jarayonida to'liq aks ettiradi.

Uchinchidan, Vygotskiy (1978)ning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga muvofiq, STEAM asosidagi darslarda o'quvchi mustaqil o'rganish faoliyatini olib boradi, o'qituvchi esa yo'l ko'rsatuvchi, maslahatchi va ilmiy mentor sifatida ishtirok etadi. Bu yondashuvda o'qituvchi endi “axborot beruvchi” emas, balki o'quvchini tadqiqotga yo'naltiruvchi rahbar rolini bajaradi. Natijada, o'quvchilar bilimni tayyor shaklda qabul qilmay, balki ijodiy tajriba, ilmiy kuzatuv va reflektiv tahlil orqali o'zlashtiradilar.



To'rtinchidan, STEAM metodikasi fizika fanining mohiyatiga mos keladigan empirik va tadqiqotiy bilish usullarini kengaytiradi. Fizika tabiatan tajriba, kuzatuv, modellash va ilmiy tahlilga asoslanadi. Shu sababli, o'quvchilarning eksperimental faoliyatga jalb etilishi, ular tomonidan fizik qonunlarni muhandislik va texnologik loyihalarda tatbiq etish (masalan, energiya tejovchi tizimlar, optik asboblari, elektromagnit qurilmalar, avtomatlashtirilgan mexanizmlar yaratish) ularning nazariy bilimni tadqiqot va amaliyot bilan bog'lash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish STEAM yondashuvining asosiy vazifasidir. Bu jarayonda o'quvchi tayyor bilimni emas, balki muammoli vaziyatni tahlil qilib, yechimni tadqiqot asosida o'zi topadi. Shu sababli, STEAM metodikasi Azizova (2021) va Bozorov (2023) tomonidan ilgari surilgan "reflektiv-muammoli yondashuv" tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Unga ko'ra, o'quvchi o'z fikrlash jarayonini kuzatish, baholash va tahlil qilish orqali metakognitiv tafakkurni shakllantiradi. Mamatxunov Y. A. ta'kidlaganidek, fizika ta'limida reflektiv va tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarni faqat natijani olish emas, balki o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishga, xulosalar chiqarish va yangi ilmiy gipotezalarni ilgari surishga o'rgatadi. Bu esa ularni "o'ylash haqida o'ylash" – ya'ni metakognitiv fikrlash darajasiga olib chiqadi.

Oltinchidan, milliy ta'lim siyosati bilan uyg'unlikda ishlab chiqilgan STEAM modeli "O'zbekiston – 2030" konsepsiyasida belgilangan "ijodiy tafakkurga ega, tadqiqotchi va innovatsion fikrlovchi shaxsni tarbiyalash" maqsadiga xizmat qiladi. Fizika ta'limida STEAM integratsiyasi ushbu strategik yo'nalishni amalda tatbiq etishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunday qilib, o'tkazilgan muhokamalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Fizika ta'limida STEAM texnologiyalari fanlararo integratsiya va tadqiqotga yo'naltirilgan o'rganishni kuchaytiradi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar konstruktiv va hamkorlikka asoslangan ilmiy muhitga aylanadi;
- o'quvchilar muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va ilmiy gipotezalarni sinovdan o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'ladilar;
- nazariya, tadqiqot va amaliyotni uyg'unlashtirish orqali innovatsion tafakkur, kasbiy kompetensiyalar va reflektiv fikrlash rivojlanadi.

Natijada, STEAM yondashuvi fizika ta'limini yangi bosqichga olib chiqadi – bu bosqichda ta'lim jarayoni o'quvchini tadqiqotchi, muhandis, ijodkor va innovator sifatida shakllantiradi.

№	Yo'nalish nomi	Ilmiy-pedagogik asos	Fizika fanidagi amaliy ifoda	O'quvchi kompetensiyasiga ta'siri
1	Fanlararo integratsiya	Dewey (1938) – Learning by Doing g'oyasiga asoslangan holda fanlarni bog'lash orqali faol o'rganish.	"Elektromagnit induksiya" mavzusida Faradey qonuni asosida generator modeli yaratish.	Nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lash, tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
2	Tajriba asosida o'rganish (Experiential Learning)	Kolb (1984) – Experiential Learning Cycle (tajriba–refleksiya–nazariya–amaliyot) modeli.	Fizik tajriba natijalarini kuzatish, xulosalash, yangi vaziyatga tatbiq etish.	Reflektiv tafakkur, muammoli vaziyatda yechim topish, ilmiy izlanish kompetensiyasi.
3	Reflektiv-metakognitiv yondashuv	Vygotskiy (1978) – Zone of Proximal Development; o'quvchi markazli o'qitish modeli.	O'qituvchi mentorlashuvchi ro'lda, o'quvchi mustaqil tajriba olib boradi.	Mustaqil o'rganish, metakognitiv fikrlash, o'z-o'zini baholash kompetensiyasi.
4	Fizik fan asosidagi empirik yondashuv	Fizika – kuzatish, tajriba va modellash orqali bilish fani (empirik metod).	"Dron modeli", "Quyosh batareyali tizim", "Aqli suv nasosi" kabi loyihalar.	Muhandislik tafakkuri, texnik kompetensiya, innovatsion g'oya yaratish qobiliyati.
5	Ijodiy va tanqidiy tafakkur	Azizova (2021), Bozorov (2023) – Reflektiv–problem-based metodlar.	Muammoli holatni tahlil qilish va ilmiy gipoteza ilgari surish.	Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mantiqiy tahlil va loyihaviy tafakkur.
6	Ta'lim siyosati bilan uyg'unlik	"O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi – innovatsion tafakkurga ega shaxsni shakllantirish.	Fizika darslarini zamonaviy texnologiya, texnik va san'at yo'nalishlari bilan bog'lash.	Innovatsion, texnik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fizika ta'limida STEAM texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda nafaqat bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki ilmiy-tadqiqot tafakkuri, muhandislik madaniyati, ijodkorlik va kasbiy kompetensiyalarni ham kompleks tarzda rivojlantiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni faol subyekt sifatida shakllantiradi, ularning nazariy bilimni real hayotdagi muammolarni ilmiy tadqiqot asosida hal etish salohiyatini oshiradi.

Birinchidan, STEAM asosidagi o'qitish o'quvchilarda texnik tafakkur va ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Fizika darslarida o'quvchilar tajriba, modellashtirish, raqamli o'lchovlar va loyiha ishlari orqali fizik qonunlarning amaliy va ilmiy qo'llanilishini o'zlashtiradilar. Bu jarayon Deweyning "learning by doing" – "amal orqali o'rganish" tamoyiliga va Kolb (1984)ning "tajribaviy o'qitish modeli"ga tayanadi. O'quvchilar elektromagnit induksiya, energiyaning saqlanish qonuni, optik hodisalar, mexanik tebranish kabi mavzularda tadqiqot asosida loyihalar ishlab chiqib, o'z kuzatuvlarini amaliy natijalarga aylantirdilar. Shu orqali ular fizik qonunlarning ilmiy va kasbiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglab yetdilar.

Ikkinchidan, kasbiy yo'nalish, ijodiy fikrlash va ilmiy izlanishga motivatsiya o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlariga mos ravishda rivojlandi. STEAM yondashuvi o'quvchilarda "tadqiqotchi sifatida fikrlash" va "muhandis sifatida yaratish" qobiliyatlarini shakllantirdi. Vygotskiy (1978)ning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi asosida o'quvchilar murakkab muammolarni mustaqil hal etishga intilib, o'qituvchining yordamidan yo'l-yo'riq sifatida foydalandilar. Natijada, o'quvchilarda metakognitiv tafakkur – ya'ni o'z fikrlash jarayonini kuzatish, tahlil qilish va takomillashtirish ko'nikmalari rivojlandi.

Uchinchidan, jamoaviy hamkorlik, kommunikativ madaniyat va muammoli vaziyatlarda yechim topish kompetensiyalari mustahkamlandi. STEAM darslari davomida o'quvchilar loyiha asosida kichik guruhlarda ishlash, rollarni taqsimlash, fikr almashish va ilmiy dalillar asosida qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etdilar. Bu jarayon Schön (1983)ning "reflektiv amaliyot" tamoyiliga muvofiq tashkil etilib, har bir loyiha yakunida o'quvchilar o'z faoliyatini reflektiv tahlil asosida baholadilar. Shu bilan birga, ular o'z ishlanmalarining natijalarini himoya qilib, ilmiy nutq, taqdimot va jamoaviy fikrlash madaniyatini rivojlantirdilar.

To'rtinchidan, fizika ta'limida STEAM texnologiyalarini qo'llash fanlararo integratsiyani chuqurlashtiradi. O'quvchilar matematika, texnologiya, tadqiqot, muhandislik va san'at elementlarini uyg'unlashtirgan holda fizik hodisalarni modellashtirish, ilmiy dizayn asosida yechim ishlab chiqish va ijodiy loyihalar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu yondashuv Azizova M. M. (2021) tomonidan ilgari surilgan "fanlararo konstruktiv yondashuv" konsepsiyasiga uyg'un bo'lib, o'quvchilarda integrativ, tahliliy va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM metodikasi nazariya, tadqiqot va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamladi. O'quvchilar fizik qonunlarni faqat formulalar orqali emas, balki tajriba, modellashtirish va loyiha asosida tahlil qildilar. Masalan, elektromagnit maydonni o'rganishda ular generator modeli yasab, magnit oqimi va elektr kuchlanish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tadqiqot orqali aniqladilar. Bu jarayon o'quvchilarda ilmiy-empirik tafakkur va analitik tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Oltinchidan, milliy ta'lim siyosati bilan uyg'unlikda ishlab chiqilgan STEAM modeli "O'zbekiston – 2030" konsepsiyasida belgilangan "ijodiy, tadqiqotchi, texnik salohiyatli va raqamli kompetensiyaga ega shaxsni tayyorlash" maqsadiga xizmat qiladi. Fizika fanida bunday integratsion model o'quvchini nafaqat akademik bilim bilan, balki hayotiy muammolarni ilmiy-tadqiqot asosida hal etish qobiliyati bilan qurollantiradi.

Yakunda aytish mumkinki, fizika ta'limida STEAM texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda:

- texnik tafakkur va ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini;
- kasbiy yo'nalish va ijodiy fikrlashni;
- jamoaviy hamkorlik, reflektiv tahlil va muammoli yechim topish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning ilmiy va texnik salohiyatini, balki innovatsion tafakkur, muhandislik fikrlash va ijodiy muammolarni tadqiqot asosida hal etish kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Natijada, fizika ta'limi 21-asr kompetensiyalarini rivojlantiruvchi, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan, amaliy va reflektiv ta'lim tizimi sifatida yangi bosqichga ko'tariladi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. Arlington, VA: NSTA Press.
2. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
3. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. Beers, S. Z. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for Their Future. National Education Association.
6. Honey, M., & Hilton, M. (2011). Learning Science through Computer Games and Simulations. National Academies Press.
7. Quigley, C. F., & Herro, D. (2016). Finding the joy in the unknown: Implementation of STEAM teaching practices in middle school science and math classrooms. *Journal of Science Education and Technology*, 25(3), 410–426.
8. Yakman, G., & Lee, H. (2012). Exploring the exemplary STEAM education in the U.S. as a practical educational framework for Korea. *Journal of the Korean Association for Science Education*, 32(6), 1072–1086.
9. Connor, A. M., Karmokar, S., & Whittington, C. (2015). From STEM to STEAM: Strategies for enhancing engineering & technology education. *International Journal of Engineering Pedagogy (iJEP)*, 5(2), 37–47.
10. Marshall, J. C. (2010). S.T.E.A.M. integration: How science, technology, engineering, the arts and mathematics inspire student creativity. *Journal of Educational Research*, 4(2), 89–102.
11. Azizova, M. N. (2021). Fizika ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning didaktik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
12. Bozorov, Z. R. (2023). Reflektiv o'qitish metodikasining fizika ta'limidagi roli. Andijon davlat universiteti ilmiy axborotlari, 2(4), 55–61.
13. Mamatxunov, Y. A. (2024). Fizika ta'limida reflektiv yondashuv va muammoli o'qitish integratsiyasi. O'zbekiston pedagogika jurnali, 3(2), 72–80.
14. Abdurahmonova, S. S. (2022). STEAM yondashuv asosida umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
15. Raxmatova, N. (2022). O'quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishda fanlararo integratsiya metodlari. Farg'ona ilmiy axborotlari, 1(3), 41–47.
16. Yuldasheva, D. (2020). Fizika fanini o'qitishda muammoli va loyihaviy metodlarning samaradorligi. Ta'lim texnologiyalari jurnali, 4(5), 88–95.
17. Shodiev, M. (2019). STEM-ta'lim elementlaridan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari. *Pedagogika jurnali*, 5(6), 60–67.
18. Xudoyberdiyev, A. (2023). STEAM yondashuvi asosida o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish yo'llari. Andijon davlat pedagogika instituti axborotnomasi, 2(1), 22–29.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. (2022-yil 28-yanvar). PF–60-son Farmon – “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. (2022-yil 11-aprel). PF–76-son Farmon – “O'zbekiston – 2030” konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”.
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019-yil 8-oktabr). 841-son qaror – “Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
22. UNESCO. (2019). Science, Technology and Innovation in Education: Global Report. Paris: UNESCO Press.
23. OECD. (2020). Future of Education and Skills 2030: Conceptual Learning Framework. Paris: OECD Publishing.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.